XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 1 - mart VI-59-22-4-58-K/23 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanidagi mavjud nomsiz ziyoratgoh va qabristonlarga nom berish to‘g‘risida

Qamashi tumanidagi mavjud aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari O‘zbekiston Respublikasi geografik obektlari nomlari Davlat reyestiri bilan solishtirma xatlov o‘tkazish natijasida ayrim qabristonlar va ziyoratgohlar reyestr bazasiga kiritilmaganligi aniqlangan. Shunga asosan Qamashi tuman hokimligi Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 30-noyabrdagi 8-son yig‘ilish bayoni, Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish to‘g‘risida viloyat komissiyasiga 2022-yil 1-dekabrdagi taklifi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 09-yanvardagi 15-00036-son ekspert xulosasi va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qamashi tumanida Geografik obektlarga nom berish to‘g‘risida Qamashi tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Ro‘ziyevaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 09-yanvardagi 15-00036-son ekspert xulosasiga asosan tuman mavjud nomsiz ziyoratgoh va qabristonlarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

3. Tumandagi mavjud nomsiz ziyoratgoh va qabristonlarga nom berilayotgan geografik obektlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qamashi tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Q.Haydarov, tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i J.Abdiyevga bir hafta muddatda tuman hududidagi nom berilgan geografik obektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklansin.

5. Tumandagi tegishli mahalla fuqarolari yig‘inlari raislariga aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ziyoratgoh va qabristonlarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida keng tashviqot-targ‘ibot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (Haydarov), Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Omonova) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.Tog‘ayev**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2023 yil 1 martdagi
VI-59-22-4-58-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumanida mavjud nomsiz ziyoratgoh va qabristonlarga nom berilayotgan geografik obyektlarning ro‘yxati

№	Geografik obektning turi	Geografik obektning bog‘lanishi	Geografik obektning amaldagi nomi	Taklif qilingan nom	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	**Qabriston**	Qiziltepa MFY	Nomsiz	Qiziltepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	**Qabriston**	Oynakul MFY	Nomsiz	Mahatbobo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	**Qabriston**	Kaptarxona MFY	Nomsiz	Qo‘rg‘ontepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	**Qabriston**	Azlartepa MFY	Nomsiz	Azlarbobo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	**Qabriston**	Qizilqishloq MFY	Nomsiz	Yakkapista	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	**Qabriston**	Qizilqishloq MFY	Nomsiz	Sheytbobo	**Shahidbobo** – “Gegografik obyekt nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	**Qabriston**	Qizilqishloq MFY	Nomsiz	Cho‘rimomo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	**Qabriston**	Qizilqishloq MFY	Nomsiz	Terakbobo	**Terakzor** – “Gegografik obekt nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	**Qabriston**	Changak MFY	Nomsiz	Hurbibi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	**Qabriston**	Katta o‘ra MFY	Nomsiz	Mulla Qoraboy xatib	**Mulla Qoraboy –** “Gegografik obekt nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	**Qabriston**	Chuqurqishloq MFY	Nomsiz	Xovar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	**Qabriston**	Chuqurqishloq MFY	Nomsiz	Bekto‘p	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	**Qabriston**	O‘rta dara MFY	Nomsiz	Jayrato‘p	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	**Qabriston**	O‘rta dara MFY	Nomsiz	Boshdara	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

15.	**Qabriston**	Katta o‘ra MFY	Nomsiz	Qizilmasjit	**Qizilmasjid** – “Gegografik obekt nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	**Qabriston**	Katta o‘ra MFY	Nomsiz	Kattatosh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17.	**Qabriston**	Katta o‘ra MFY	Nomsiz	Qo‘g‘a-2	**Quyi Qo‘g‘a –** “Gegografik obekt nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	**Qabriston**	Ko‘kbuloq MFY	Nomsiz	Archazor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
19.	**Qabriston**	Qiziltepa MFY	Nomsiz	Qiziltom-1	**Yuqori Qiziltom –** “Gegografik obekt nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
20.	**Qabriston**	Qiziltepa MFY	Nomsiz	Qiziltom-2	**Quyi Qiziltom –** “Gegografik obekt nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
21.	**Ziyoratgoh**	Qiziltepa MFY	Nomsiz	Ko‘ktosh ota	**Ko‘ktoshota –** “Gegografik obekt nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.